



1-dars. Takrorlash. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar



1. Biror bargni tanlang va uning nomerini aniqlang.
Do'stingiz shu bargning rangini topa oladimi?



Chizg'ich yordamida 20 gacha bo'lgan sonlar bilan istalgan misolni qanday yechish mumkinligini eslang.



2. Qiymatlarni **o'sish** tartibida yozing. Qanday so'z hosil bo'ldi?

Z	Z	E	A	G
I 15 - 6	N 19 - 5	X 8 + 5	R 12 - 4	O 9 + 6
19 - 3	14 - 3	3 + 4	6 + 6	6 + 4



3. Kuzda hovlidagi daraxtlar rangini o'zgartirdi. 6 ta terak sariq rangga, 7 ta zarang qizil rangga bo'yaldi. Faqat 4 ta eman yashil holicha qoldi. Hovlida jami nechta daraxt o'smoqda?





4. Yozing va taqqoslang.

$14 \square 19$

$16 \square 18$

$10 + 10 \square 19$

$18 - 9 \square 9$



5. Qo'shimcha ma'lumotlar asosida misollar tuzing va ularni yeching.



	15	10	5	2
	2	3	7	9



	14	15	11	9
	7	5	4	5



6. Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

- a) Sentabr oyida quyoshli kunlar necha kun bo'lgan?
 b) Quyoshli kunlar bulutli kunlardan necha kun ko'p bo'lgan?
 d) Sentabr oyida shamolli kunlar necha kun bo'lgan?



– quyoshli kunlar



– bulutli kunlar



– shamolli kunlar



7. Kuzgi tabiat hodisalari nomini toping.

A $9 + 9$

I $6 + 7$

Q $7 + 8$

N $4 + 8$

R $6 + 5$

V $3 + 6$

M $8 + 6$

U $8 + 9$

T $7 + 9$

O $5 + 5$

16

17

14

18

12

15

13

11

10

9

8. O'quvchilar "Oltin kuz" ko'rik tanloviga 5 ta she'r, 2 ta ertak va 8 ta rasm tayyorlashdi. Hay'at a'zolari jami nechta vazifani baholashlari kerak?

